**O'zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

# *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* magistratura mutaxassisligining malaka talablari

ЎзР ОЎМТВ
Буйрук № 367
«21» 08 2023 йил

**Toshkent-2023**

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “21” 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari | 4 |
| 1.2.2. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari | 4 |
| 1.2.3. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining turlari | 5 |
| 1.2.4. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari | 5 |
| 2. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar | 6 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar | 6 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar | 7 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar | 8 |
| 2.3.1. | Kvalifikatsiya | 8 |
| 2.3.2. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar | 9 |
| 2.3.3. | *70211401–Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi | 9 |
| | *Bibliografik ma'lumotlar* | 10 |
| | *Kelishuv varag'i* | 11 |

## 1. *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

***70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)*** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### 1.1. Qo'llanish sohasi

**1.1.1. *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

–mazkur magistrtura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

–magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

–magistratura bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

–ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

–oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

–oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

–kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan magistrant bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

**1.2.1. *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

*70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* – san'at sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chikarish birlashmalarida ilmiy tadkiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, ta'lim muassasalarida ilmiy pedagogik, o'rta maxsus, kasb- xunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik (o'rnatilgan tartibda) faoliyat bilan shug'ullanish, ilmiy ijodiy-tadqiqot ishlari kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

–O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi tizimi tashkilotlari;

–oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

–Fanlar akademiyasi va tarmok ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

–davlat va mahalliy boshqaruv organlari, san'at sohasi boshkaruv organlarida boshkaruv jarayonlari;

–davlat va mahalliy boshqaruv organlari, san'at sohasi boshkaruv organlarida boshkaruv jarayonlari;

–san'at tizimidagi akademik, ilmiy tadqiqot muassasa va tashkilotlari;

–vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) jarayonlar, musikiy san'at asarlari, ularning g'azallari;
–ovoz turlari, musiqaning ifoda vositalari, texnik vositalar, resurslar, usul va uslublar majmuasi;
–ilmiy tadqiqot jarayonlari.

**1.2.3. *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

–ilmiy-tadqiqot faoliyati;
–ilmiy-ijodiy-ma'rifiy faoliyat;
–ijrochilik faoliyati;
–tizimli-kommunikativ faoliyat;
–o'quv-uslubiy faoliyat;
–tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
–oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik faoliyat;
–umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);
–konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

**1.2.4. *70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:**

*70211401 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka doirasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:**

–kasbiy faoliyat sohasining ixtisosligiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqikot loyixalarini tahlil qilishi;
–vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) sohasidagi amaliy masalalarini yechish uchun yangi texnologiyalar va dasturlar paketlarini qo'llashi;
–o'tkazilayotgan ilmiy-tadqikot loyixalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, uslublarni tadqiq qilishi va ishlab chiqishi;
–eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishi va ularning natijalarini qayta ishlashi;
–ilmiy-ijodiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqishi;
–o'tkazilayotgan tadkikotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzishi;
–ilmiy seminarlar, ilmiy-ijodiy konferensiyalarda ishtirok etishi;
–ilmiy-ijodiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlashi lozim.

**Ilmiy-ijodiy-ma'rifiy faoliyatda:**

–yuksak badiiy saviyadagi musiqiy asarlarni yaratish bilan bog'lik ilmiy ijodiy ishlarni olib borishi;
–musiqa asarlarini ijro etish ko'nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallashi;
–ijro etilayotgan asarlarning mazmuni, shakli va uslubini baholashi;
–kasbiy va havaskorlik badiiy jamoalarida rahbar va maslahatchi sifatida keng ko'lamda musiqiy-ma'rifiy ishlarni olib borishi, milliy va jahon musiqa ijodiyoti, ijrochilik yutuqlarini targ'ib etishi;
–yoshlar orasida musiqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borishi, aholi tarkibidagi turli guruh va qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olishi lozim.

**Ijrochilik faoliyatida:**

–ansambllarda, teatr-konsert muassasalarida yakkanavozlik, yakkaxonlik,
–ansambl ijrochiligi, musiqa rahbarligi, badiiy rahbarlik ko'nikma va imkoniyatlarini kengaytirishi;
–zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda yangi aranjirovka namunalari bilan ijro dasturlarini muntazam boyitishi lozim.

**Tizimli-kommunikativ faoliyatda:**

–axborotni izlash, tanlab olish, almashish va foydalanish uchun tizimlashning oqilona vositalarini qo'llashi, uning tekshiruvini va manbalarini tasniflashni yo'lga qo'yishi;

–ta’lim yo‘nalishi va yondosh masalalar yuzasidan chop etilayotgan maxsus o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarga tayanishi;

–o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy faoliyatida qo‘llaniladigan texnik vositalardan foydalanishi lozim.

**O‘quv-uslubiy faoliyatda:**

–o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarni rejalashtirishi, tashkil qilishi va amalga oshirishi;

–o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi va teranligini aniqlash va unga musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash ko‘nikmalarini singdirishi;

–o‘quv jarayonini hamda o‘quv-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy va ilmiy-ijodiy ishlarni tashkil etishning ilg‘or tajribalarini umumlashtirishi va joriy etishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

–musiqiy, teatr-tomosha va boshqa san’at muassasalarida joriy va ustuvor ishlarning rejalashtirishni tashkil etishi;

–toifasi va yo‘nalishi har xil bo‘lgan teatr, musiqiy va xoreografik jamoalarga badiiy rahbarlik qilishi;

–musiqiy tadbirlar va ijodiy jarayonlarni nazorat qilishda ishtirok etishi lozim.

**Oliy ta’lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik faoliyatda:**

–o‘quv fanlarini o‘qitish uslubiyotini egallashi;

–elektron o‘qitish usullarini egallashi;

–oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimining ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishi;

–zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishi;

–o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv uslubiy hujjatlarni tuzishi, tayyorlashi va rasmiylashtirishi;

–o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

–mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda

–pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o‘z o‘zini muntazam takomillashtirib borishi;

–uzluksiz ta’lim tizimining dts, Davlat talablari va boshqa o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etishi lozim.

**Konsalting xizmati faoliyatida:**

–san’at sohasida mutaxassisligi bo‘yicha mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqishi;

–musiqa ijodiyotida mutaxassisligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashishi;

–mutaxassislikka mos mavzu bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatishi lozim.

## 2. *70211401 - Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik)* mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

### 2.1. Umumiy kompetensiyalar:

–ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

–xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

–yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

–o‘z faoliyatida me’yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

–internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

–axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

–ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

–xonandalik ovozlari borasida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lish, muayyan ijroning professional uslubini o‘zlashtirish, ashula yo‘llarini cholg‘u yo‘liga moslash va aksincha, turli ohanglarga mos g‘azallarni bog‘lay olishi, ijrochilik maktablarini farqlay olish, soz chalib jo‘rnavozlik va yakka ijrochilik mahoratini egallash, ijrochilik mahoratini va san’atini ko‘p sonli tinglovchilarga to‘liq yetkazib bera olish qobiliyati;

–fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

–o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi; ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat shakllangan bo‘lish;

–boshqaruvchanlik salohiyatiga ega bo‘lish, jamoaviy ijrochi, mustaqil kasbiy ish faoliyat ko‘rsatadigan va yuqori musiqa ijrochilik mahoratiga ega kadr bo‘lish,

–ansambl ijrochiligi tarixi, ijrochilik maktablari, usul va uslublarini o‘rganish hamda ish jarayonida qo‘llay olish,

–xonanda va sozandalar ansambli rahbari sifatida ansamblga jo‘rnavozlik qilish, ansamblda ovozlar taqsimoti bo‘yicha mukammal ko‘nikmaga ega bo‘lish, xonanda va sozandalar ansambllari ijrosi hususida tanqidiy fikrlay olish mahorati;

–oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, ta’lim muassasalarida ilmiy pedagogik, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish;

–axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

–bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

–pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

–ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

**2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

**Majburiy fanlar** – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to‘ldiruvchi fanlar jamlanmasi. Bunda oldin keladigan fan bo‘yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo‘lgan fan bo‘yicha talabaning mashg‘ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin. Magistratura mutaxassisligi bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

**Tanlov fanlari** – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo‘yicha qo‘shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan

fanlar jamlamasi. Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagan mutaxassislikdan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar.

**Ilmiy faoliyat** – bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:** *Xonanda, tadqiqotchi-pedagog.*

*2.3.2. 70211401 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* **mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | **1500** | **50** |
| Tanlov fanlar | **300** | **10** |
| Ilmiy-tadqiqot va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash | **1080** | **36** |
| Ilmiy pedagogik ish | **240** | **8** |
| Ilmiy amaliyot (stajirovka) | **480** | **16** |
| **JAMI:** | **3600** | **120** |

*2.3.3. 70211401 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)* **mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **1500** | **50** | |
| **1.01** | AX1410 | An'anaviy xonandalik | 300 | 10 | 1-4 |
| **1.02** | XAS1415 | Xonandalik ansambli san'ati | 450 | 15 | 1-4 |
| **1.03** | ITM1103 | Ilmiy tadqiqot metadalogiyasi | 90 | 3 | 1 |
| **1.04** | ES1103 | Etnosolfedjio | 90 | 3 | 1 |
| **1.05** | SHXM1205 | Sharq xalqlari maqomlari | 150 | 5 | 2-3 |
| **1.06** | MZKI1205 | Maqomot va zamonaviy Kompozitorlik ijodiyoti | 150 | 5 | 3-4 |
| **1.07** | M1103 | Manbashunoslik | 90 | 3 | 2 |
| **1.08** | 21AJMM1103 | XXI asr jahon musiqasi madaniyati | 90 | 3 | 1 |
| **1.09** | O'MM1103 | O'zbekiston musiqasi madaniyati | 90 | 3 | 1 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **300** | **10** | |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar* | 300 | 10 | 1,3 |
| | | **Jami** | **1800** | **60** | |
| **3.00** | | **Ilmiy faoliyat** | **1800** | **60** | |
| 3.01 | | Ilmiy-tadqiqot va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash | **1080** | **36** | 1-4 |
| 3.02 | | Ilmiy pedagogik ish | **240** | **8** | 1-3 |
| 3.03 | | Ilmiy amaliyot (stajirovka) | **480** | **16** | 2,4 |
| | | **HAMMASI** | **3600** | **120** | |

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv tizimi, kasb ta'limi, fan, texnika, tadqiqot, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot uslublari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, fan ishchi dasturlari, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, pedagogik texnologiyalar, axborot tizimlari, nutq madaniyati, maqomot, ovoz san'ati, milliy cholg'ular, shashmaqom, o'n ikki maqom, maqom yo'llari, vohaga mansub asarlar, nasr bo'limi, maqom sho'balari, namudlar, avjlar, maqom ladlari, xalq ashulalari, cholg'u ijrochiligi san'ati, xonandalik san'ati, yirik musiqiy asarlar, turkum asarlar, ovoz tembri, obraz talqini, ijrochilik uslublari, ijroga mantiqiy yondashuv, musiqiy mavzular yaxlitligi, turkumlar, ijodiy uslub, ijro uslubi, ansambl.

**Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti**
***70211401 - Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida***

## KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh. “____”__________ 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar–O‘zbek milliy maqom san’ati markazi direktori S.Begmatov, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.Urinbayev, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti rektori O.Nazarbekov birgalikda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

*70211401 - Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) mutaxassisligi.*

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiklash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iktisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ulariing mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, Qarorlari va 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o’quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog’risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

| | |
|---|---|
| **O‘zbek milliy maqom san’ati markazi direktori** | **S.Begmatov** |
| **O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori** | **K.Urinbayev** |
| **Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti rektori** | **O.Nazarbekov** |

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari**

## ISHLAB CHIQILGAN:

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti**

**Rektor** ___________ **O.A.Nazarbekov**

2023 yil « 14 » 08

M.O'.

## KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor** ___________ **Sh.U.Yakubov**

2023 yil « 21 » 08

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi "Ta'lim va ilm fanni rivojlantirish boshqarmasi"**

**Boshqarma boshlig'i** ___________ **N.K.Kasimov**

2023 yil « 15 » 08

M.O'.

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**

**Rektor.v.v.b** ___________ **E.O'.Shermanov**

2023 yil « 15 » 08

M.O'.

**O'zbekiston davlat konservatoriyasi**

**Rektor** ___________ **K.T.Urinbayev**

2023 yil « 16 » 08

M.O'.

**O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi**

**Rais** ___________ **R.A.Abdullayev**

2023 yil « 17 » 08

M.O'.

**O'zbek milliy maqom san'ati markazi**

**Direktor** ___________ **S.M.Begmatov**

2023 yil « 17 » 08

M.O'.